



“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati

PRESS-RELIZ

2023-yil 31-yanvar

Kadrlarni tayyorlash, o‘qitish va qayta tayyorlashga bag‘ishlangan matbuot anjumani to‘g‘risida

2023-yil 31-yanvar kuni Navoiy shahridagi monomarkazda “Muhandis kadrlar tayyorlash, shu jumladan, kadrlarni o‘qitish va qayta tayyorlash borasida olib borilayotgan ishlar va istiqboldagi rejalar” mavzusida navbatdagi matbuot anjumani o‘tkazildi.

Matbuot anjumanida “NKMK” AJ Kadrlar boshqarmasi boshlig‘i Otabek Rahmatov, Jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha direktor Xolmamat Raupov, OAV vakillari va jurnalistlar ishtirok etishdi.

Bugungi kunda kombinatda 47 mingga yaqin ishchi-xodimlar mehnat faoliyatini olib bormoqda, shundan, 6 ming nafardan ortig‘i ayollar, qariyb 13 ming nafari 30 yoshgacha yoshlar, 11 ming nafardan ortig‘i oliy ma‘lumotli xodimlardir.

Kombinatning kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo‘yicha Navoiy, Zarafshon, Uchquduq shaharlari, Zarkent qo‘rg‘onida 5 ta o‘quv markazi mavjud bo‘lib, 2022-yilda ushbu markazlarda qariyb 13 ming ishchilar o‘qitildi. Shundan 6 ming nafarga yaqin ishchilar qayta tayyorlandi va 7 ming nafarining malakasi oshirildi.

Kombinat tomonidan kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ishchi-xodimlarni oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitish uchun 2022-yilda 12 mlrd so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirildi.

Ishlab chiqarishga muhandis kadrlarni tayyorlashda kombinat va Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent kimyo texnologiyalar instituti o‘rtasida o‘zaro hamkorlik

yo'lga qo'yilgan. Har yili ushbu oliy o'quv yurtlari hamda Zarafshon sanoat texnikumi va Uchquduq konchilik texnikumining talabalari kombinat korxonalarida amaliyotni o'taydilar va ularning ko'pchiligi keyinchalik ishga joylashtiriladi.

Aholini kasb-hunarga o'qitishning yangi tizimini tashkil etish, o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlash maqsadida "NKMK" AJ ko'magida Navoiy shahrida "Ishga marhamat" monomarkazi faoliyati yo'lga qo'yildi. 2022-yilda ushbu monomarkazda kombinat uchun 1 014 nafar tinglovchi ta'lim oldi. Ushbu tinglovchilar mutaxassisligi bo'yicha kombinat bo'linmalarida amaliyot o'tab, ularning 920 nafari ishga qabul qilindi.

2023-yilda kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash maqsadida kombinat o'quv markazlarida 12 ming nafardan ortiq ishchilar o'qitilishi, respublikaning malaka oshirish o'quv markazlarida 800 nafardan ortiq xodimlar hamda xalqaro o'quv markazlari bilan hamkorlikda 50 nafar mutaxassislarning malakasini oshirish rejalashtirilgan.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati – yuksak sifat, samaradorlik va ijtimoiy himoya kafolati! Kombinatda muhandis kadrlar tayyorlash, shu jumladan, kadrlarni o'qitish va qayta tayyorlash borasida olib borilayotgan ishlar ishchi-xodimlar – korxonaning asosiy boyligi ekanligining isbotidir. Bu sohada olib borilayotgan amaliy ishlar natijada ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat unumdorligini oshirish hamda mahsulot tannarhini pasaytirishga xizmat qiladi.

Murojaat uchun ma'lumotlar:

"NKMK" AJ Matbuot xizmati, Ish telefonlari: **+99879 227-75-88, 227-74-73**

"NKMK" AJ rasmiy veb-sayti: www.ngmk.uz

"NKMK" AJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari:

www.t.me/ngmkofficial

www.fb.com/nkmkofficial

www.instagram.com/nkmk.official

www.youtube.com/nkmkofficial

www.linkedin.com/company/jsc-nmmc/

www.twitter.com/jsc_nmmc

Ma'lumot uchun:

"NKMK" AJ jahonda oltin ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar to'rttaligiga kiradi. Kombinat yer osti boyluklari zaxiralari geologik qidirish, qazib olish va qayta ishlashdan tayyor mahsulot olishgacha bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari to'liq amalga oshiriladigan yirik sanoat klasteridir. Kombinat zamonaviy kon-transport va texnologik uskunalari, ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan konlar, zavodlarga ega zamonaviy korxonadir. "NKMK" AJning "999,9" soflikdagi oltin quymalari jahonning qimmatbaho metallar bo'yicha birjalarida O'zbekistonning brendiga aylandi.